DISLEKSIYA VA DISGRAFIYA NUQSONI BO’LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
PhD v/b pof ***Musaeva Nargiza Sayfullayevna***
Jurayeva Ma’rifat Mamadjonovna
Maxsus pedagogika yo’nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada disleksiya va disgrafiya nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda uchraydigan o‘qish, yozish va nutq rivojlanishidagi qiyinchiliklar ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, ular bilan olib boriladigan korreksion-terapevtik ishlarning mazmuni, yo‘nalishlari hamda samaradorligi yoritiladi. Tadqiqotda logoped, psixolog, defektolog va ota-onalar hamkorligidagi kompleks yondashuvning ahamiyati ham ko‘rsatib beriladi.

Аннотатция: В данной статье рассматриваются основные трудности в развитии чтения, письма и речи у детей с дислексией и дисграфией. Освещаются направления и содержание коррекционно-терапевтической работы, а также её эффективность. Особое внимание уделено комплексному подходу, включающему взаимодействие логопеда, психолога, дефектолога и родителей в процессе коррекции нарушений письменной речи.

Abstract: This article analyzes the main difficulties in reading, writing, and speech development observed in children with dyslexia and dysgraphia. It highlights the key directions, methods, and effectiveness of correctional and therapeutic interventions. The study also emphasizes the importance of a comprehensive approach involving collaboration among speech therapists, psychologists, special educators, and parents in supporting children with written language disorders.

Kalit so‘zlar:disleksiya, disgrafiya, logopediya, korreksiya, fonematik idrok, neyropsixologiya, kognitiv rivojlanish.

Ключевые слова: дислексия, дисграфия, логопедия, коррекция, фонематическое восприятие, нейропсихология, когнитивное развитие

Keywords: dyslexia, dysgraphia, speech therapy, correction, phonemic perception, neuropsychology, cognitive development.

O’zbekiston Respublikasi Prizidentining 2019 yil 29 apreldagi “O’zbekiston Reshublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’grisida”gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O’zberistonda inklyziv ta`limni rivojlantirish, alohida ta`lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga talim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko’rsatiladigan ta`lim xizmatlari sifatini yaxshilash. Inklyuziv talim tizimi uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlanadi.

2025- yildagi UNESCO konferensiyasidagi nutqida “Muhim vazifa-har bir bolaga, uning jismoniy –ijtimoiy sharoitidan qat’iy nazar, sifatli ta’limga teng kirish imkonini ta’minlashdan iborat.

Shundan kelib chiqqan holda, Prezident inklyziv ta’limini nafaqat milliy, balki global hayyotiy talab sifatida ko’radi.

Bu hujjatlar inkluziv ta’limni amalga oshirishda huquqiy asos vazifasini bajaradi. Korreksion- terapevtik ishlarda inkluziv yondashuv inkluziv muhitda disleksiya va disgrafiya nuqsonli bolalar bilan ishlashda individual va guruhli korreksion mashgulotlar o’tkaziladi.

Zamonaviy ta’limda o‘quvchilarda nutqiy va yozma faoliyatga oid qiyinchiliklar ko‘payib borayotgani defektologiya va logopediya sohalarida yangi vazifalarni kun tartibiga olib chiqmoqda. Disleksiya (o‘qishdagi buzilish) va disgrafiya (yozishdagi buzilish) ko‘pincha birgalikda uchrab, bolaning bilish jarayonlari, ta’limdagi faolligi hamda ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.“Disleksiyada o’quvchi so’zlarni avtomatik tanish tizimidan foydalana olmaydi.Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, disleksiya odatda mustaqil nuqson sifatida kam uchraydi va ko‘pincha yozma nutqdagi buzilish — disgrafiya bilan birgalikda namoyon bo‘ladi.

Disleksiyada quyidagi belgilar ko‘p kuzatiladi: harflar va bo‘g‘inlarning almashib ketishi, so‘zlarni to‘liq o‘qiy olmaslik, bo‘g‘inlar tartibining buzilishi, tinish belgilariga rioya qilmaslik, matn mazmunini to‘liq anglamaslik.

Disgrafiyada esa fonematik, grammatik va leksik tuzilmalarning yetarli shakllanmaganligi sababli yozuv jarayonida ko‘plab xatolar yuz beradi. Bu nuqsonlarning yuzaga kelishida markaziy nerv tizimining funksional yetishmovchiligi, fonematik idrokning sustligi ham muhim omil hisoblanadi. “Disgrafiya va disleksiya aksariyat hollarda bola fonematik tizimining yetarlicha shakllanmagani tufayli yuzaga keladi. Bunday bolalar tovushlarni farqlashda qiynaldi, bu esa yozma nutqda ko’plab xatolar keltirib chiqaradi” Levinaning fikricha , “disleksiya va disgrafiya- bu murakkab biologic-psixologik nuqson bo’lib, u faqat yozuv jarayonining buzilishi emas, balki butun til tizimining rivojlanishidagi kechikishlar bilan bog’liq”

Korreksion-terapevtik ishlar bolaning fonematik eshituvini rivojlantirish, artikulyatsion apparat faoliyatini faollashtirish, yozma nutq ko‘nikmalarini mustahkamlash, diqqat va xotirani kuchaytirish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Mironovaning tadqiqotlarida “Disleksiya va disgrafiyani korreksiya qilishda fonematik idrok, artikulyatsion motorika hamda ko’rish analizatorlarini kompleks rivojlantirish yuqori samaradorlikka ega”

Fonematik idrokni rivojlantirishda tovushlarni ajratish, ularning so‘zdagi o‘rnini aniqlash kabi mashqlar qo‘llanilsa, artikulyatsion gimnastikalar nutq organlarining motorik imkoniyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish bosqichida harflarni to‘g‘ri ko‘chirish, bo‘g‘inlab o‘qish, xatolarni tahlil qilish kabi

mashqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Neyropsixologik mashg‘ulotlar esa ikki yarimshar faoliyatini uyg‘unlashtirish, diqqat va xotirani mustahkamlashga qaratiladi. Art-terapiya va musiqaterapiya bolalarning emotsional holatini barqarorlashtiradi va nutq ritmini yaxshilaydi. Vygotskiy nuqtayi nazariga ko’ra, “ Nuqtning buzilgan funksiyalarini tiklash uchun bolaning ixtiyoriy e’tiborini, tahliliy-sintetik faoliyatini rivojlantirish zarur”

Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, erta tashxis qo‘yish va muntazam korreksion ishlarni tashkil etish disleksiya va disgrafiyaning salbiy ta’sirini sezilarli kamaytiradi. Ayniqsa, fonematik idrok, ko‘rish va eshitish analizatorlarining rivojlanishi, yozma va og‘zaki nutqni takomillashtirish hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash jarayonlari yuqori samaradorlikka ega.

Toshkent shahridagi logopedik markazlar amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, olti oylik tizimli mashg‘ulotlardan so‘ng bolalarda o‘qish tezligi 80% holatda oshgan, yozuvdagi xatolar 75% ga kamaygan, nutqqa bo‘lgan motivatsiya esa 90% holatda kuchaygan.

Uqorida sanab o’tilgan adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, disleksiya va disgrafiya bo’lgan bolalarda yozma va o’qish faoliyatining rivojlanishi sust kechadi, fonematik eshitish,diqqat, xotira va nutq analizatorlari rivojlantirishda ushbu ma’lumotlarga ta’yangan holda quyidagi tavsiyalarni berishimiz mumkin;

1. Erta diagnostika tizimini kuchaytirish.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida nutqiy, fonematik va kognitiv rivojlanishni muntazam skriningdan o‘tkazish tizimini joriy etish bolalarda disleksiya va disgrafiya belgilari erta aniqlanishiga yordam beradi.

2. Logoped va defektologlar uchun maxsus o‘quv dasturlarini kengaytirish.

Amaliyotchi mutaxassislar disleksiya va disgrafiya bo‘yicha zamonaviy neyropsixologik yondashuvlarni o‘z ichiga olgan malaka oshirish kurslarida muntazam qatnashishi zarur.

3. Individual korreksion dasturlar ishlab chiqish.

Har bir bolaning o‘qish va yozishdagi nuqsonlari darajasi, kognitiv imkoniyatlari hamda psixologik holatidan kelib chiqib, moslashtirilgan shaxsiy reabilitatsiya rejasi tuzilishi lozim.

XULOSA

Xulosa sifatida, disleksiya va disgrafiya nuqsonlari bilan ishlash uzoq muddatli, izchil va individual yondashuvni talab qiladi. Logoped, defektolog, psixolog, neyropsixolog hamda ota-onalar hamkorligida tuzilgan kompleks korreksion dastur bolalarning yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ilmiy manbalar erta yordam ko‘rsatish va integrativ yondashuv qo‘llash orqali ushbu nuqsonlarning oqibatlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkinligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. M. Ayupova Logopediya Toshkent 2019, 100029
2. Logopediya 1993
3. Mironova S.A. Korrektsionnaya rabota pri disgrafii I disleksii. Sankt – Peterburg: Rech. 2019.
4. Maxsus pedagogika 2022